



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeovich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarining texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoir Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Buvrayev Akram Rustam o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning kasbiy kompetensiyasi, ayniqsa, kognitiv faoliyatni rivojlantirish muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqot davomida integrativ yondashuv asosida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, mustaqil fikrlashni shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirishning samarali mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning analitik, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va usullar tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: kognitiv kompetentlik, integrativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, fanlararo integratsiya, kreativ fikrlash, refleksiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: The theoretical and practical aspects of developing the cognitive competence of future primary school teachers through an integrative approach are analyzed. In the modern educational system, the professional competence of teachers, particularly the development of cognitive activity, is considered one of the key factors. The study highlights effective mechanisms for ensuring interdisciplinary integration, developing independent thinking, applying innovative pedagogical technologies, and improving reflective activity based on an integrative approach. Furthermore, methods and techniques aimed at developing the analytical, creative, and critical thinking skills of future teachers are described.

Key words: cognitive competence, integrative approach, primary education, pedagogical technology, interdisciplinary integration, creative thinking, reflection, competency-based approach.

Аннотация: Анализируются теоретические и практические аспекты развития когнитивной компетентности будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода. В современной системе образования профессиональная компетентность педагога, особенно развитие когнитивной деятельности, рассматривается как один из важных факторов. В ходе исследования освещаются эффективные механизмы обеспечения межпредметной интеграции, формирования самостоятельного мышления, использования инновационных педагогических технологий, а также развития рефлексивной деятельности на основе интегративного подхода. Кроме того, описываются методы и приёмы, направленные на развитие аналитического, креативного и критического мышления будущих педагогов.

Ключевые слова: когнитивная компетентность, интегративный подход, начальное образование, педагогическая технология, межпредметная интеграция, креативное мышление, рефлексия, компетентностный подход.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish hamda zamonaviy fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglarning intellektual salohiyati, analitik fikrlashi, kreativ yondashuvi va kognitiv kompetentligini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning keyingi intellektual rivojlanishi uchun fundamental asos yaratadi.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyat o'qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilimga ega bo'lishni, balki mustaqil fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda integrativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishni ham talab qilmoqda. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



Kognitiv kompetentlik – shaxsning bilimlarni egallash, qayta ishlash, tizimlashtirish, muammoli vaziyatlarda qo'llash hamda yangi bilimlar hosil qilishga oid intellektual imkoniyatlarini ifodalovchi murakkab pedagogik kategoriya hisoblanadi. Mazkur kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatida samarali qaror qabul qilishi, refleksiv tahlil olib borishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi pedagoglardan yangi metodik tafakkur va innovatsion yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon talabalarda fanlararo bog'liqlikni anglash, bilimlarni kompleks ravishda o'zlashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beradi. Integratsiya jarayoni turli fanlar, metodlar va texnologiyalar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlash orqali bo'lajak pedagoglarning intellektual faoliyatini faollashtiradi.

Integrativ yondashuvning asosiy mohiyati ta'lim mazmunini yagona tizim asosida tashkil etish, turli fanlarni o'zaro bog'lash hamda shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati, tanqidiy tafakkuri va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois integrativ ta'lim modeli bugungi pedagogik amaliyotda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda fanlararo bilimlar integratsiyasini ta'minlash, nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash, pedagogik refleksiya va kreativ faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Shuningdek, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasini rivojlantiradi. Ayniqsa, multimedia vositalari, interaktiv metodlar, elektron ta'lim platformalari va loyihaviy faoliyatning qo'llanilishi talabalar kognitiv faoliyatining faollashuviga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Oliy pedagogik ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish hamda integrativ ta'lim muhitini yaratish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish, uning nazariy asoslarini yoritish hamda samarali metod va texnologiyalarni aniqlashdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Mazkur muammoning nazariy asoslari kompetensiyaviy yondashuv, integrativ ta'lim, pedagogik texnologiyalar va kognitiv faoliyat nazariyalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan.

Pedagogik kompetentlik nazariyasining rivojlanishida rus olimlari I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoy, G.K. Selevko, V.A. Slasteninlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. I.A. Zimnyaya kompetensiyani shaxsning bilim, ko'nikma va amaliy tajribasining integrallashgan tizimi sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim oluvchining nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki uning amaliy faoliyatga tayyorligini ham ifodalaydi. A.V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiluvchi sifatlar majmui sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlarida kognitiv kompetensiya bilimlarni mustaqil egallash, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash qobiliyati bilan bog'liq holda tavsiflangan.

G.K. Selevko zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganar ekan, integrativ yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Olimning fikricha, integratsiyalashgan ta'lim jarayoni talabalarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-kognitiv rivojlanish nazariyasi ham mazkur tadqiqot uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Olim shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va hamkorlikdagi faoliyatning muhimligini asoslab bergan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi pedagogik integratsiya jarayonida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amerikalik pedagog olim J. Dewey ta'limni amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, ta'lim jarayoni o'quvchini mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni hal etishga va hayotiy tajribani boyitishga yo'naltirilishi kerak. Bu esa integrativ yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan N.A. Muslimov, O'. Tolipov, M. Usmonboyeva, N.N. Azizxo'jayeva, J.G'. Yo'ldoshevlarning ilmiy ishlari ham bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Xususan, N.A. Muslimov pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqqan bo'lib, unda innovatsion pedagogik faoliyat va mustaqil ta'limning ahamiyati yoritilgan. O'. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish masalalarini tadqiq qilganlar. Ularning ilmiy qarashlarida interaktiv metodlar, muammoli ta'lim va integrativ texnologiyalar bo'lajak pedagoglarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rsatiladi.

N.N. Azizxo'jayeva pedagogik mahorat va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'qituvchi kompetentligini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy asoslagan. Olimaning tadqiqotlarida pedagogning refleksiv faoliyati, kreativ yondashuvi va kommunikativ kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda integrativ ta'limning raqamli pedagogika bilan uyg'unlashuvi ham keng o'rganilmoqda. Xususan, multimedia vositalari, elektron platformalar, STEAM texnologiyalari va loyiha asosida o'qitish metodlari talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Biroq mazkur muammoning boshlang'ich ta'lim yo'nalishida zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda yetarli darajada tadqiq etilmagan jihatlari mavjud. Shu sababli ushbu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni olish uchun ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va suhbat metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, pedagogik texnologiyalar hamda integrativ yondashuv bo'yicha ilmiy ishlardan ma'lumotlar yig'ildi. Shuningdek, respondentlar sifatida pedagogika yo'nalishi talabalari ishtirok etib, ularning integrativ yondashuvga munosabati, kognitiv faoliyati, mustaqil fikrlash va refleksiv ko'nikmalarini aniqlash maqsadida so'rovnomalarda o'tkazildi.

Pedagogik kuzatuv orqali talabalarning o'quv faoliyati, fanlararo integratsiyaga moslashuv darajasi hamda ta'lim jarayonidagi faolligi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tavsifiy tahlil usullari yordamida qayta ishlandi hamda natijalar umumlashtirish, taqqoslash va tizimlashtirish metodlari asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari integrativ yondashuvning bo'lajak pedagoglarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv kompetentlik tushunchasining mazmuni

Kognitiv kompetentlik shaxsning bilimlarni egallash, qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik nuqtai nazardan, kognitiv kompetentlik o'qituvchining kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilishi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va innovatsion fikrlashini belgilovchi muhim sifat hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida quyidagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi:

- tanqidiy fikrlash;
- analitik yondashuv;
- kreativ tafakkur;
- axborotni saralash va qayta ishlash;
- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;
- refleksiv faoliyatni amalga oshirish.

Mazkur kompetensiyalar pedagogning professional faoliyati samaradorligini oshiradi hamda ta'lim sifati yuksalishiga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash orqali bilimlarni yaxlit tizim sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuvda alohida fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda o'qitiladi va o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Bilimlarning tizimlilikini ta'minlaydi.
2. Talabalar turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi va bilimlarni kompleks tarzda o'zlashtiradi.
3. Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.
4. Integrativ topshiriqlar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.
5. Ijodkorlikni shakllantiradi.
6. Turli metod va texnologiyalarning uyg'unligi kreativ yondashuvni rivojlantiradi.



7. Kasbiy moslashuvchanlikni oshiradi.
8. Pedagoglar zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion faoliyat olib borishga tayyor bo'ladi.
9. Refleksiv faoliyatni rivojlantiradi.
10. Talabalarda o'z faoliyatini baholash va tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi

Muammoli ta'lim talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini faollashtiradi. Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali pedagogik tafakkur rivojlanadi va talabalarning tahliliy fikrlash qobiliyati ortadi.

Loyihaviy faoliyat

Loyiha asosida o'qitish integrativ yondashuvning samarali shakllaridan biridir. Talabalar loyiha yaratish jarayonida:

- axborot izlaydi;
- tahlil qiladi;
- guruh bilan ishlaydi;
- muammoga innovatsion yechim topadi.

Bu esa ularning kognitiv faoliyatini faollashtiradi.

Interaktiv metodlardan foydalanish

"Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Debat", "Case-study" kabi metodlar talabalarni faol fikrlashga undaydi hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi

Elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari va raqamli resurslardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini oshiradi. Zamonaviy pedagog o'z faoliyatida AKT vositalaridan samarali foydalanishni bilishi zarur.

Integrativ yondashuvning amaliy samaradorligi shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, fanlararo tafakkur shakllanadi, kasbiy motivatsiya kuchayadi, mustaqil ta'lim ko'nikmalari rivojlanadi va pedagogik kreativlik ortadi.

Shuningdek, integrativ yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorligini mustahkamlaydi hamda ularni zamonaviy ta'lim talabalariga mos kompetent mutaxassis sifatida shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv orqali talabalar bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtiradi, mustaqil va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda pedagogik faoliyatga samarali tayyorlanadi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, innovatsion faoliyatga tayyorlash va zamonaviy ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim tizimida integrativ texnologiyalarni keng joriy etish hamda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017. – 18 b.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – Москва, 2016.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 2018.
5. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва, 2015.
8. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 2012.
9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.